

MALLA RANG ISHORATI. MALLA SAVDOGAR TIMSOLIDAGI EZGULIK RANGI

Achilova Zuxra Qurbanovna

Shahrisabz davlat pedagogika

Insituti o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi magistranti

ANNOTATSIYA

Maqolada dunyo tuzilshida ranglarning mifik talqini, inson tafakkurida ranglar haqidagi turfa qarashlarning akslanishi, nazmda tabiat fasllarining rangin ifodasi, inson tuyg ‘ularining rangi, “Malla savdogar” dostonida Malla timsoli, malla rangning majoziy ishorati to‘g‘risida mulohaza yuritilgan.

Kalit so‘zlar: rang, mifik qarash, dunyo, tabiat, Malla savdogar, malla rangni badiiy xususiyati

Dunyoni yaralishida ham ranglar bilan bog‘liq turlicha mifologik qarashlar yuzaga kelgan. Tabiatda uchraydigan ranglarning har birini o‘z ma’nolarini musavvirlar, so‘z san’atkorlari ramziy jihatdan mushohada etganlar va ijodlarida ko‘rsata bilganlar.

Xalqning urf-odatlari, qadriyatlarida ham ranglar bilan bog‘liq an'analar yuzga kelgan dalillar bor. Ranglarning inson ruhiyati va tadiriga ta’sir etuvchi sinoatlari borasida izlanishlar olib borilgan ma’lumotlar yo‘q emas.

Dunyo ibtidosining rangi, yer sayyorasidagi qit’alar rangi, bani bashar irqining rangi haqidagi mifologik va ilmiy manbalar talqinida o‘rganish mumkin.

Boshqiristonlik oftamol’ig jarroh olim Ernst Mo‘ldashevning “Biz kimdan yaraganmiz?” kitobida Tibet va Nipalda olib borgan izlanishlarida ko‘z bilan bog‘liq hodisalar borasida hikoya etgan.

Bu kitobdagagi qiziq bir jihat ya’ni rang bilan bog‘liq fikrlar bayon etilgan.

“Nostardamusning kitobini ko‘rib chiqdim. U atlantalarning qadimgi tamadduni odamlari qonga o‘xshagan qip-qizil ranglar bag‘rida yashaganini aytadi. O‘shanda osmon qip-qizil, daraxtlar lov-lov yonib turganga o‘xshar ekan. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, tibet ibodatxonalarida afsonaviy atlantalarning qadimiy tamaddunlaridagi odamlarining ko‘zlari tasvirlangan. Hozir esa osmon lojuvard rangda. Bizning ko‘zlarimiz esa moviy ranglarga moslashgan. Mening nazarimda, mehvar o‘zgarsa, bu hol osmon rangiga ta’sir ko‘rsatadi.”

“...ibodatxonalaridagi bu ko‘zlarning tasvirida ko‘z o‘rtasida biroz yuqoriroqda tomchisimon dog‘ bor. Bu dog‘ hind ayollarining pardoz qilganda qoshlari o‘rtasida

qo‘yadigan qizil xoliga o‘xshaydi. Aftidan, bu dog‘ uchinci ko‘z o‘rnini aks ettirsa kerak.

Qadim-qadimlarda odamlarning uchinchi ko‘zi bo‘lgani ma’lum. Embriologiya ma’lumotlari shundan dalolat beradi. Hozigi zamon kishilarida u narsa qoldiq sifatida mavjud. “Uchinchi ko‘z” inson bioenergiyasining organi hisoblanga. Rivoyatlarda aytishicha, bu ko‘z mo‘jizalar yaratishga qodir bo‘lgan – fikrni uzoq masofalarga uzata olgan, yerning tortish kuchiga ta’sir ko‘rsatgan, ko‘pgina xastaliklarni davolagan. Men Nostardamusning kitobida bu to‘g‘rida ham ma’lumot topdim. U afsonaviy atlantalar “uchinchi ko ‘z” orqali yuboriladigan ichki qudrat vositasida juda og‘ir buyumlarni ham ko‘tara olgani va nigohlari bilan juda katta imoratlar qurishga qodir bo‘lgani haqida aytgan.”

[1. 51-52-bet.]

Ranglar orqali inson va tabiat uyg‘unligini yapon shoiri Saygyo ijodida ham k’rishimiz mumkin:

**“Qachon, aytgil, qachon
Sen zarang yaprog‘ini
Qon rangiga bo‘yarsan?”
Deb so‘ramoq istayman
Yomg‘ir to‘la osmondan.**

[3.25-b.]

Adabiyotshunos olim Nurboy Abdulhakimning “Biz qanday millatmiz” maqolasida odam irqining rangi bilan bog ‘liq bir ma’lumot keltirilgan:

“Qisasi Rabg ‘uziyda”da yozilishicha, “Bir kun Nuh alayhissalom uziyur (uxlar – qavs ichidagi barcha izohlar –N.A.) erdi, yel esandi. Nuh etagin ko‘turdi, uvut andomi ochildi. Hom ani ko ‘rib kului. Som Homg‘a malomat qildi. Yofas ani ko‘rib, to ‘ni bila o‘rtdi (bekitdi)*(45)

E’tibor bering, har uch o‘g‘ilning harakatida ularning xulqi namoyon bo‘lgan. Ularning Xaq taolo ne’matlaridan bahramandlik darajasi ham xulqlariga yarasha. Nosiriddin rabg ‘uziyning ta’kidlashicha, “Mavlo aning shumluqidin Homning o‘ngurqasindagi nutfani qora qildi. O‘g‘lonlari qora bo‘ldi. Uyalmishda evluki ilkin (xotinining qo‘lin) oldi. Tengiz qirg‘og‘ida atog‘a kirdi, qamish birla ev (uy) qildi. Andag ‘uq urug ‘lari hindular, xabashiylar, zangilar qamug‘i aning urug‘i tururlar”(45).

Ma’lum bo‘ladiki, aslida homning rangi-ro‘yi qora bo‘lmasan. Otasiga qilgan beadabligi bois uing avlodlari shunday qismatga mubtalo bo‘lgan.[2. 12-bet.]

Ranglar bilan bog‘liq Solih alayhissalom qissasida ham bir voqeа mavjud:

Solih alayhissalom Jabroil xabaricha Alloh taoloning farmoniga ko‘ra budparast kofirlarni iymonga da’vat etish da’vat etiladi. Solih bu ishni amalga oshirishga kirishadi. Ammo budparstlar undan mo ‘jiza ko ‘rsatishni talab etadilar.

“ – Ey Solih, bizning iydgohimizda bir tosh bor, shu toshdan qizil rangli tuya chqargin, ko‘zi qora bo ‘lsin, ham homilador bo‘lsin, ko‘zimizning oldida erkaka bola tug‘sin”.

Bu mo‘jiza sodir bo‘ladi. Shunigdek, Solih alayhissalom bu tuyani sariq sochli, qizil yuzli, chag ‘ir ko ‘zli kishi o ‘ldirishi bashorat etiladi. Vaqt kelib bu voqeа ham sodir bo ‘ladi. [4.45-bet.]

Har bir rangda haqiqat bordir,

Har chiziqda ranglar yashirin (Shavkat Rahmon she’ri)

So‘z san’atida turli ranglarni estetik maqsadlarda istifoda etish shoirdan alohida iste’dod va katta mahorat talab qilinadi. O‘tmishda, xususan, o‘zbek xalq og‘zaki ijodida ranglarga murojaat qilishda o‘zgacha ramziylik bor. Masalan, xalq og‘zaki ijodi qo‘shiqlarida oq rang yigit xalq og ‘zaki ijodi qo‘shiqlarida oq rang yigit obrazi, qizil rang esa qiz obrazini, ko‘k rang ilohiylikni ifodalaydi.

Alisher Navoiy ijodida ranglarni o‘zining ma’lum estetik qarashlariga bo‘ysundirgan holda undan ustalik bilan foydalangani alohida ahamiyatga ega. Uning “Sab’ai sayyor” dostonida real borliqni, dostonagi qahramonlarning nafaqat tashqi qiyofalari, balki ularning ichki ma’naviy dunyosini ham yoritib berish maqasdlarida ranglardan mohirlik bilan foydalangani ko‘rinadi.

Navoiy go‘zallik olamidagi ranglarni xoh u qora, xoh u sariq, qizil yoki oq bo‘lsin, ularning hammasi ma’lum maqasdarining ruhiy kechinma va holatlari bilan chambarchas bog‘liq holda foydalangan.

Ranglar nafaqat o‘zbek adabiyotida, balki jahon adabiyotida ham o‘z mavqeiga ega bo ‘lib kelgan. Xususan, buyuk ispan shoiri Fediriko Garsia Lorka ispan xalq qo‘shiqlariga xos xususiyat – ranglardan o‘ziga xos tarzda foydalangan. Lorka she’riyatida siyohrang – motam; binafsharang – judolik, xotira, saodat; ko ‘k rang – mangulik, oq rang – o ‘lim, mangulik, e’tiqod, ozodlik; kulrang – qayg ‘u; sariq rang – quyosh, bug ‘doy, quvvat, ilhom, shuhurat, qizil – qahr, qon rangi, iztirob, ehtiros, g‘urur ramzidir. Bu ramzlar uning asarlariga xalq og ‘zaki ijodi orqali kirib kelgan. [5.21-b.]

Hatto ranglar bilan bog‘liq marosimlar bor.

Bunday marosimlar bayram sifatida ham nishonlanadi. Hindiston xalq bayramlari orasida “Ranglar bayrami” juda mashhur bo‘lib, hindlar bu kunni orziqib kutadilar. Yurtga ko ‘klam kelgnligi sharofati bilan barcha yovuz ruhlarni quvish maqsadida

uyushtiriladigan bu bayram oy to ‘lishganda ikki kun davom etadi. Afsonalarga ko ‘ra, ko ‘klamning ilk oy to ‘lishgan kunlarida o‘z yovuzligi bilan dillarga qutqu soladigan shayton vafot etgan... **[5. 21-22-bet.]**

Malla rang-jigarrangga moyilroq och sarg ‘ish rang. Manbalarda malla rangni xush ko‘radigan insonlar vazmin, tartibli, qondoshlariga oqibatli bo‘lish ramzi sifatida bo y ko‘rsatadi.

Xalq tilida tuproq rangi qora, malla, qizil, sariq, bo‘z deya atalish ham bor. Chaqaloq tug‘ilganda chillasini ma’lum davrida bola xunuk to‘kdor bo ‘lib qolmasligi uchun kayvoni ayollar bola badaniga toza qizil, malla deb ataluvchi tuproqdan so ‘rtishgan. Bu vazifada chaqaloqni badanini ko‘rkam etadi dega tushuncha yotadi. **[6.mahalliy qariyalar gapi]**

Balki insonni tuproqdan yaralganiga va bola ulg‘aygach vatan tuprog‘ini qadrlar ishorati ham bo‘lishi mumkin.

“Yer yuzidan tuproq olinishi bayoni” da odam Alloh taolo farmoni bilan Azroir yer yuzidan bir changal turoq keltiradi. Tuproqda har xil rahg bo ‘lgan. Shirin, achiq ta’m bo‘lgan. Shu boisi odamlar tusi har xil bo‘lgan. Odamni bino etish maqasdida uni balchig ‘iga o ‘ttiz to ‘qqiz kun (yil) sho ‘r va bir kun (yil) shirin yomg‘ir yog‘dirgan. So‘ngra odam uchu Isrofil suv, Mikoil o‘t (olov), keltirdi. Barchasi qorishtirildi. Odam vujidiga to‘rtta narsani ato etadi: aql, ruh, nafs, ko‘ngil.**[4. 9-10-bet.]**

Malla savdogar dostonidag Malla savdogar timsoli nima uchun aynan malla rang bilan bog‘liqligi nazarda bu sariq tuproq va oftob rangiga yaqinligi ezgulik rangi sifatida gavdalanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

- 1.Tafakkur jurnali, 2-son, Ernst Mo‘ldashevning “Biz kimdan yaralganmiz?” kitobidan parcha 51-52-bet. 2005-yil.
- 2.Tafakkur jurnali, 2-son. Nurboy Abdulhakim “Biz qanday millatmiz?” maqolasi. 12-bet, 2005-yil.
- 3.Dengiz yaproqlar, (yapon she’riyatidan), 25-b.T. “G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti,1988-yil.
- 4.Nosiruddin Burxonuddin Rabg‘uziy “Qissasi Rabg‘uziy” asari, [9-10-bet.] ,[45-bet.] T. “Yoshlar nashriyoti uyi” nashriyoti.2018-yil.
- 5.Ranglarga yashiringan sirlar.21-22-bet. T. “Davr press” nashriyoti, 2010-yil.
- 6.Mahalliy qariyalardan yozib olingan qisqa matal